

**Ismoiljonova Visolabonu G‘ayratjon qizi**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti*

*Lingvistika (dariy) guruhi 1-bosqich magistranti*

*Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. X.Z.Alimova*

**Annotatsiya.** *Maqolada dariy tilidagi izofali ko‘makchilarning funksional tahlili amalga oshirilgan. Izofali ko‘makchilarning gap tarkibidagi sintaktik-semantik vazifalari, ularning iste‘moldagi mavqei va ishlatilishi ilmiy materiallar va aslyatdagi manbalar asosida aniqlangan.*

**Kalit so‘zlar:** *dariy tilida izofali ko‘makchilar, o‘rin ma‘nosini bildiruvchi ko‘makchilar, yo‘nalish ma‘nosini anglatuvchi ko‘makchilar, vosita ma‘nosini bildiruvchi ko‘makchilar, sabab-maqasadni anglatuvchi ko‘makchilar.*

Ma‘lumki, ko‘makchilar yordamchi so‘zlar turkumiga kiradi. Yordamchi so‘zlar o‘zining atash ma‘nosiga ega bo‘lmaydi va mustaqil tarzda ma‘lum bir so‘roqqa ham javob bo‘la olmaydi. Shuningdek, gap tarkibida mustaqil tarzda biror bir gap bo‘lagi vazifasini ham bajara olmaydi. Yordamchi so‘zlarning ushbu umumiy qonuniyati ko‘makchilar uchun ham xosdir. Ushbu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda ko‘makchilarning gap tarkibidagi yoki iste‘moldagi sintaktik-semantik vazifasi belgilanadi. Ko‘makchilarning vazifasi borasida o‘zbek tilshunoslari quyidagicha fikr bildiradilar: ko‘makchilar gapda qaysi so‘z, so‘z birikmasi yoki gap bo‘lagidan keyin yoki oldin kelsa, o‘sha so‘z yoki gap bo‘lagi bilan birgalikda bir xil so‘roqqa javob bo‘ladi va ko‘makchi birikkan so‘z qaysi gap bo‘lagi vazifasini bajarsa, ko‘makchi ham o‘sha bo‘lak bilan qo‘shilib bir xil gap bo‘lagi bo‘lib keladi.

Dariy va fors tillarida mustaqil ma‘noga ega bo‘lgan ba‘zi bir ot va ravishlar old ko‘makchi vazifasida ham kelishi mumkin. Bu so‘zlar old ko‘makchi bo‘lib kelganda, o‘zlarining mustaqil ma‘nolarini yo‘qotib ko‘makchi so‘z anglatgan grammatik ma‘noni bajaradilar va doimo o‘zidan keyin kelgan so‘zga izofa orqali birikib keladilar. Izofali ko‘makchilar gapda asosiy ko‘makchilar orqali ifodalangan ma‘nolarni konkretlash, ular orasidagi munosabatni yana ham aniqroq ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

Masalan,

– روی او زیبا است *Uning yuzi toza.*

– روی میز پاک است *Stolning yuzi (usti) toza<sup>3</sup>.*

M.Abdusamatovning yozishicha: “Agar asosiy ko‘makchilar gapda biror predmetning o‘rni yoki yo‘nalishini ko‘rsatsa, izofali ko‘makchilar shu o‘rin yoki yo‘nalish predmetning qaysi tomoniga qaratilganligini bildiradi. Izofali ko‘makchilar

<sup>3</sup> Bu haqda qarang. Abdusamatov M. Fors tili. – T.: Sharq, 2007. – B.111.

o‘rin yoki yo‘nalish ma‘nolarini bildirganlarida, o‘rin va yo‘nalish ma‘nolarini anglatuvchi asosiy ko‘makchilar tushib qolishi ham mumkin, ularning ma‘nolari fe‘lning ma‘nosidan ham kelib chiqaveradi”<sup>4</sup>.

Izofali ko‘makchilarning gap tarkibidagi vazifasi haqida Yu.A.Rubinchik: “Asosiy va izofali ko‘makchilar birga ishlatilganda, asosiy (bosh) ma‘noni izofali ko‘makchi (ko‘makchi vazifasida kelgan so‘zlar: ot yoki ravish)lar beradi, ya‘ni ot ko‘makchilar gapda gap bo‘laklari o‘rtasidagi vositachi sifatida ishtirok etib, sintaktik munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi”<sup>5</sup> deb ta‘kidlaydi. Biz buni quyidagi misolda ko‘rishimiz mumkin.

این تمرینات و رزمایش نظامی در خاک تاجیکستان در نزدیک مرز افغانستان، امروز (5 آگوست) شروع شده و تا 10 آگوست ادامه خواهد داشت<sup>6</sup>.

*Afg‘oniston chegarasi yaqinidagi Tojikistondagi harbiy mashg‘ulotlar bugun 5-avgustda boshlanib to 10-avgustga qadar davom etadi.*

Ushbu gapdagi ot ko‘makchi asosiy ko‘makchining ma‘nosini konkretlashtiryapti, lekin ular (ko‘makchilar)ning ikkalasi ham aynan ushbu kontekst uchun o‘rinli va bir-birini to‘ldirib, fikrni aniqlashtirib turibdi. L.S.Peysikovning fikricha, odatda ot ko‘makchi vazifasida kelsa, ichki ma‘no aloqadorligiga asoslanadi<sup>7</sup>. Demak, yasama yoki otdan yasalgan ko‘makchilar ham boshqa ko‘makchilar singari gapda grammatik ma‘no munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Albatta, bu mustaqil so‘z turkumlarining ma‘nosi darajasida emas, ko‘makchilarning leksik ma‘nosi ikkilamchi ma‘no kasb etadi va ular mustaqil ma‘noli so‘zlar va ularning grammatik qiymati uchun xizmat qiladi.

Ko‘makchilarning gap tarkibidagi sintaktik-semantik vazifasi haqida Eron hamda afg‘on tilshunoslari atroflicha fikr yuritishgan. Masalan, izofali ko‘makchilarning gapdagi vazifasi haqida Doktor Parviz Notel Xonlariy quyidagi fikrni aytadi: “Ko‘makchilar gapda bir ot(ism)ni boshqa bir ot(ism)ga; bir olmoshni boshqa bir olmoshga va boshqalarga nisbatan grammatik ma‘no munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, ko‘makchilar fe‘lning to‘ldiruvchisini shakllantirishga ham xizmat qiladi”<sup>8</sup>.

دردو کنار این شاهراه نیز فراهم شده است<sup>9</sup>.

*Ushbu magistral yo‘lining ikki tomoni ham ta‘minlangan.*

Yu.A.Rubinchikning yozishicha, ko‘makchilarning yordamchi so‘z turkumi sifatidagi kategorial ma‘nosi ularning leksik ma‘nosiga qarab emas, balki ko‘makchi

<sup>4</sup>Abdusamatov M. Fors tili. – T.: Sharq, 2007. – B.114.

<sup>5</sup>Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Восточная литература РАН, 2001. – С.320.

<sup>6</sup>شک و تردید روسیه به وعده های طالبان. 7.8.2021

<sup>7</sup>Пейсиков Л.С. Синтаксис персидского языка. – М.: Изд-во МГУ, 1959. -С.27-28.

<sup>8</sup>دکتر پرویز نائل خانلری. دستور زبان فارسی. چاپ بیستم تهران توس. : ۱۳۸۴ ص ۷۵

<sup>9</sup>روزنامه ملی انیس. 27 آگست 2021

vazifasidagi jihatlari bilan ifodalanadi<sup>10</sup>. Shundan kelib chiqib, izofali ko‘makchilarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- o‘rin va joy ma’nosiga ko‘ra: پشت، روی، بالای، زیر
- harakat yo‘nalishiga ko‘ra: به سمت، به سوی، به طرف، به نزد، پیش
- vaqt ma’nosiga ko‘ra: در طی، در مدت، در طول
- sabab ma’nosiga ko‘ra: به علت، به سبب، به خاطر، به نتیجه
- vosita ma’nosiga ko‘ra: به وسیله، به توسط

Agar izofali ko‘makchilar asosiy ko‘makchi (از، با، به، بر، در) lar bilan birgalikda ishlatilsa, ma’no anglatish doirasi yanada kengayadi (ya’ni ular bunday shaklda murakkab ko‘makchi ko‘rinishiga o‘tadi).

Quyida izofali ko‘makchilarning yuqorida keltirilgan tasnifi asosini Afg‘onistonning “Anis” va “Hivod” gazeta materiallari tahlilida o‘rib chiqamiz.

### O‘rin ma’nosini bildiruvchi ko‘makchilar

#### در نزدیکی - yaqinida:

این تمرینات و رزمایش نظامی در خاک تاجیکستان در نزدیکی مرز افغانستان، امروز (5 آگوست) شروع شده و تا 10 آگوست ادامه خواهد داشت<sup>11</sup>.

*Afg‘oniston chegarasi yaqinidagi Tojikistondagi harbiy mashg‘ulotlar bugun 5-avgustda boshlanib to 10-avgustga qadar davom etadi.*

#### در کنار - tomon:

لیدمن افزوده ناروی در کنار مردم افغانستان ایستاده است و در بخش‌های مختلف به همکاری‌های خویش ادامه می‌دهد<sup>12</sup>.

*Ushbu magistral yo‘lining ikki tomoni ham ta’minlangan.*

#### در میان - o‘rtasida, orasida:

روابط میان افغانستان و کشور های همسایه اولویت در راهکار سیاست خارجی افغانستان است<sup>13</sup>

*Afg‘oniston va qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar Afg‘oniston tashqi siyosat strategiyasida ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.*

در جریان سال های اخیر این در میان شمار زیادی از دکانداران و وارد کنندگان به یک رسم مبدل شده است<sup>14</sup>.

*So‘nggi yillarda bu ko‘plab do‘kondorlar va importchilar orasida an’anaga aylandi.*

#### بین - orasida, o‘rtasida:

درگیری بین نیروهای دولتی افغانستان و طالبان در مناطق مختلف ادامه دارد<sup>15</sup>.

*Afg‘oniston hukumat kuchlari bilan Tolibon harakati o‘rtasida turli hududlarda to‘qnashuvlar davom etmoqda.*

#### زیر - ostida:

<sup>10</sup>Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Восточная литература РАН, 2001. -С.311.

<sup>11</sup>شک و تردید روسیه به وعده های طالبان. 7.8.2021

<sup>12</sup>قانونگذار امریکایی: خلیزاد باید استعفا بدهد در آگوست 14، 2021

<sup>13</sup>راهی یک صراف کابل از چنگ آدم روبایان در ننگرهار. اوریل 4.2022

<sup>14</sup>روزنامه ملی انیس. 27 آگوست. 2021. شماره مسلسل 24.07

<sup>15</sup>معاون سیاسی رییس الوزرای حکومت با سفیر ناروی دیدار کرد. ژنوبه. 22، 2022

او گفت که پنجاه و دو روز را زیر شکنجه آدم روبایان سپری کرده است<sup>16</sup>.

*U 52 kunni odam o'g'rilarining qiynoqlari ostida o'tgan ekanligini aytdi.*

**تحت – ostida:**

از کشورها در تلاش اند که افغانستان تحت حاکمیت امارت اسلامی را منزوی کنند<sup>17</sup>...

*Mamlakat islom Amirligi hokimiyati ostidagi Afg'onistonni izolyatsiya qilishga*

*harakat qilmoqda...*

**طول - bo'ylab:**

هفت کیلومتر طول ناحیه انتقال می دهد<sup>18</sup>.

*...yetti kilometrlik hudud bo'ylab*

**بر سر – yuzasida:**

بر سر حل مشکل...<sup>19</sup>

*Muammoni hal qilishda (yuzasida)...*

**روی – yuzida:**

در این نشست روی همکاری های اقتصادی با مردم افغانستان و گسترش همکاری های سیاسی با کابل بحث خواهد شد<sup>20</sup>.

*Bu uchrashuvda Afg'oniston xalqi bilan iqtisodiy va Kobul bilan siyosiy hamkorliklarni kengaytirish yuzasidan muhokamalar qilinadi.*

**بالای - orasida, ichida (...lar ichidan tanlangan, saralangan):**

خداوند (ج) چهار زن را بالای اکثریت مردم برتری داده است<sup>21</sup>.

*Alloh taolo to'rt ayolni aksariyat odamlardan (orasida, ichida) ustun qildi.*

**بر روی - nuqtai nazaridan:**

با پیشرفتهای جدید علم طبابت و آزمایشهای لابراتواری که بر روی خون ریخته شده انجام گرفت<sup>22</sup>.

*Tibbiyot ilmining yangi peshqadanlari bilan qon nuqtai nazaridan laboratoriya mashinalari tekshiruvi o'tkazildi.*

**بیرون - tashqarida:**

کشورهای بیرون جای رقابت، شریک همکاری های اقتصادی با افغانستان شدند و با سرمایه گذاری در معادن و آب این کشور سود دو جانبه کسب کنند. باخت<sup>23</sup>.

*Raqobatdan tashqaridagi davlatlar Afg'oniston bilan iqtisodiy hamkorlikning sheriklik qiladilar va Afg'onistonning konlari va suvlariga o'zaro ikki tomonlama manfaatli sarmoya kiritadilar.*

**Yo'nalishni bildiruvchi ko'makchilar**

**سمت - tomon, taraf:**

به سمت افغانستان و با توجه به وخامت اوضاع در این کشور نیازمند به کمک روسیه هستند<sup>24</sup>.

<sup>16</sup>کشورهای همسایه از ایجاد فضای مسالمت آمیز در افغانستان حمایت کرده اند. آوریل. 4. 2022

<sup>17</sup>فوریه 17، 2022 قاری گلبدین قانت: دین اسلام نسبت به زن توجه جدی نموده است

<sup>18</sup>روزنامه ملی انیس. 2021. 27 اگست

<sup>19</sup>کشورهای همسایه از ایجاد فضای مسالمت آمیز در افغانستان حمایت کرده اند. آوریل. 4. 2022

<sup>20</sup>مجاهد: اگر به پروژه ها زمینه فراهم بسازیم مشکلات اقتصادی حل می گردد. آخرین بروز رسانی مارس 10، 2022

<sup>21</sup>معاون سیاسی رییس الوزرای حکومت با سفیر ناروی دیدار کرد. ژنویه. 22، 2022

<sup>22</sup>روزنامه ملی انیس. 2021. 27 اگست

<sup>23</sup>راهی یک صراف کابل از چنگ آدم روبایان درننگرهار. آوریل 4، 2022

<sup>24</sup>کشورهای همسایه از ایجاد فضای مسالمت آمیز در افغانستان حمایت کرده اند. آوریل. 4. 2022

*Afgʻoniston tomonda mamlakatdagi vaziyat sezilarli darajada yomonlashayotganini sababli ular Rossiya yordamiga muhtojdirlar.*

**سوی - tomon, taraf:**

ولایت پروان از سوی افراد ناشناس انفجار داده شده بود<sup>25</sup>

*Parvon viloyati nomaʼlum shaxslar tarafidan portlatildi.*

**طرف - tomon, taraf:**

از طرف دیگر حضور یک شرکت نیرومند چینیایی در افغانستان برای استخراج بزرگترین معدن این کشور این پیام را می دهد<sup>26</sup>.

*Boshqa tomondan, Afgʻonistonda mamlakatning eng yirik konini qazib olish uchun kuchli Xitoy kompaniyasining mavjudligi xabarini beradi.*

**جانب - tomon, taraf:**

از جانب دیگر جهت انعقاد عقد ازدواج<sup>27</sup>

*Boshqa tomondan, nikoh shartnomasini tuzish uchun*

**Sabab-maqsdni anglatuvchi koʻmakchilar**

**sababidan – از سبب:**

این امر از سبب توقف روند توسعه اقتصادی و رشد زیربناها در افغانستان شد<sup>28</sup>.

*Bu ish Afgʻonistonda iqtisodiy rivojlanish infratuzilmaning oʻsishi jarayoni sabab toʻxtatildi.*

**جهت - sifatida:**

**sifatida – به عنوان:**

شاه و عروس و بند های دیگر را به بهره برداری سپرده اند و باید از آنها به عنوان تاسیسات عامه حفاظت شوند.<sup>29</sup>

*Shoh –e arus va boshqa toʻgʻonlar foydalanishga topshirilgan va ular jamoat obʻyektlari sifatida himoya qilinishi lozim.*

**uchun – برای:**

**uchun – به خاطر:**

به خاطر داشتن یک شهر پاک و سبز باید تلاش نمایند<sup>30</sup>.

*Ular toza va koʻklam shahar uchun ishlashlari kerak.*

**Vosita maʼnosini anglatuvchi koʻmakchilar**

**orqali – توسط:**

وسیله نقلیه ساخت این جوان خلاق توسط تلفون همراه کنترل می شود و قابلیت تصویر برداری واتصالبه انترنت را دارد<sup>31</sup>.

*Bu ijodkor yigitning transport vositasi mobil telefon orqali qilinadigan nazorat yordamida boshqariladi va suratga olish hamda internetga ulanish imkoniyatiga ega.*

**yordamida - به وسیله:**

<sup>25</sup> معاون سیاسی رییس الوزرای حکومت با سفیر ناروی دیدار کرد. ژنویه. 22، 2022

<sup>26</sup> روزنامه ملی انیس. 27 اگست. 2021

<sup>27</sup> مجاهد: اگر به پروژه ها زمینه فراهم بسازیم مشکلات اقتصادی حل می گردد. آخرین بروز رسانی مارس 10، 2022

<sup>28</sup> فوریه 17، 2022 قاری گلبدین قانت: دین اسلام نسبت به زن توجه جدی نموده است<sup>28</sup>

<sup>29</sup> مجاهد: اگر به پروژه ها زمینه فراهم بسازیم مشکلات اقتصادی حل می گردد. آخرین بروز رسانی مارس 10، 2022

<sup>30</sup> معاون سیاسی رییس الوزرای حکومت با سفیر ناروی دیدار کرد. ژنویه. 22، 2022

<sup>31</sup> راهبی یک صراف کابل از چنگ آدم روبایان درنگرهار. آوریل 4، 2022

Sintaktik jihatdan izofali ko‘makchilar gapda to‘ldiruvchining fe‘lga munosabatini shakllantiradi:

دست فروش نمی تواند در روی سرک عمومی فعالیت کند و یا روی آن طرف سرک عمومی باشد روی آن باید طرف پیاد هرو باشد<sup>33</sup>.

*Sotuvchilar umumiy yo‘lning yuzida savdo qila olmaydilar yoki umumiy yo‘lning u tarafida, yo narigi tomonida bo‘lishi kerak.*

در سه روز آینده امور تصفیه از سوی این شرکت آغاز میشود<sup>34</sup>..

*Yaqin uch kunda tozalash ishlari bu shirkat tomonidan boshlanadi.*

از دولت گذشته به شکل نیمه تمام باقی مانده<sup>35</sup>...

*Oldingi hukumatdan chala holda qolgan.*

میلیارد دالر از سرمایه ملی افغانستان از سوی این کشور بلاک شد<sup>36</sup>.

*Afg‘oniston milliy kapitalining bir milliard dollari bu davlat tomonidan bloklangan.*

To‘plangan materiallar tahlili quyidagicha xulosa chiqarishga imkon berdi:

Izofali ko‘makchilar gapda sintaktik ma‘noni bog‘lashga xizmat qiladi. Izofali ko‘makchilarning iste‘molda qo‘llanilishi darajasi asosiy ko‘makchilardan kam emas. Bular asosiy ko‘makchilar orqali ifodalangan ma‘nolarni konkretlash, ular orasidagi munosabatni yanada aniqroq ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

Dariy tilida izofali ko‘makchilarni quyidagicha guruhlash mumkin: 1) o‘rin-joy ma‘nosiga ko‘ra ( زیر (پشت، روی، بالایی، زیر); 2) harakat yo‘nalishiga ko‘ra ( به (پیش، نزد، به طرف، به); 3) vaqt ma‘nosiga ko‘ra ( در طول (در طی، در مدت، در طول); 4) sabab ma‘nosiga ko‘ra ( به وسیله، به توسط (به علت، به سبب، به خاطر، به نتیجه); vosita ma‘nosiga ko‘ra (به توسط).

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdusamatov M. Forstili. - T.: "Sharq" nashriyoti, 2007.
2. Quronbekov A. Forstili leksikologiyasi. - Toshkent: ToshDShI, 2009.
3. Алимова Х. Дарий тилида сўз ясовчи транспозиция // Шарқшунослик. Тошкент, 2016.
4. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - Москва: Восточная литература РАН, 2001. - С.320
5. Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. - М.: Изд-во МГУ, 1973. - С.143.
6. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - 311 с.
7. قاری گلبدین قانت: دین اسلام نسبت به زن توجه جدی نموده است. آخرین بروز رسانی فوریه

<sup>32</sup> معاون سیاسی رییس الوزرای حکومت با سفیر ناروی دیدار کرد. ژنویه. 22، 2022

<sup>33</sup> فوریه 17، 2022 قاری گلبدین قانت: دین اسلام نسبت به زن توجه جدی نموده است

<sup>34</sup> مجاهد: اگر به پروژه ها زمینه فراهم بسازیم مشکلات اقتصادی حل می گردد. آخرین بروز رسانی مارس 10، 2022

<sup>35</sup> روزنامه ملی انیس. 27 اگست. شماره مسلسل 24.07

<sup>36</sup> کشور های همسایه از ایجاد فضای مسالمت آمیز در افغانستان حمایت کرده اند. آوریل. 4. 2022

17,2022

8. مجاهد: اگر به پروژه ها زمینه فراهم بسازیم مشکلات اقتصادی حل می گردد. آخرین بروز رسانی مارس

2022, 10

9. کارشناسان: اقدام اخیر امریکا هیچ توجیه منطقی ندارد. آخرین بروز رسانی فوریه 17, 2022

10. احتکار و گرانفروشی از نگاه اسلام عمل زشت است. در آوریل 4, 2022

11. شک و تردید روسیه به وعده های طالبان. 7.8.2021

12. معاون سیاسی رییس الوزرای حکومت با سفیر ناروی دیدار کرد. ژنویه. 22, 2022

13. راهبی یک صراف کابل از چنگ آدم روبایان درننگرها. اوریل 4, 2022

14. روزنامه ملی انیس. 2021. 27 آگست